

Abduqayum Abdullayev

OLIMPIYA TA'LIMI ASOSLARI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV T'ILIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

Abduqayum Abdulloyev

OLIMPIYA T'ILIMI ASOSLARI
darslik

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV T'ILIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI**

CHIRCHIQ – 2023 yil
«Yangi chirchiq prints»

UO'K 796/799

КБК 75.1

A-15.

Abdullayev A.A./ Olimpiya ta'limi asoslari (Matn): darslik / -Chirchiq:
«Yangi chitchiq prints», 2023. –92 bet.

Muallif: A.A.Abdullayev – Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Taqrizchilar:

B.A.Maxmudov – Chirchiq davlat pedagogika universiteti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

A.E.Sattorov – Buxoro davlat universiteti Sport faoliyat kafedrası mudiri pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent;

АННОТАЦИЯ.

Маълум о'қув қўлланма о'рта-махсус, касб-ҳunar та'лими тизимида тахсил олиувчиларга олимпиада та'лими асосларини о'қитиш, шлангнинг онгига олимпиада йарақларининг иминсоний қадриятларига асосланган замонавий янгиуат, инсон ҳайоти ва миломатлиги, шахс баркамол тиволлашишининг наминаси еканлигини чуқур илгаридалиб каби мақсадларни ко'зда титаети.

Шлангга ко'та, қо'лланмада "Олимпиазм" г'уяларат асосида о'қувчиларни наминан, намин жамланган устак етиб тарбиялашнинг та'лими наминда тарбиялаути янгиуон о'ғранилган ва бу ботанда қадот тавсиялар ишлаб чиқилган.

АННОТАЦИЯ.

Этот учебник, среднее, и система профессионального образования обучения основам стипендиатов олимпийского образования, их чувство олимпийского движения современного общества, основанного на ценности жизни и здоровья человека, таких как глубокое вложение пример терминологических сессей в области развития.

В соответствии с этим руководство, "Олимпийский" на основе идей студентов как духовно, так и физически зрелых укрепление учебно-тренировочный процесс изучен и разработан ряд рекомендаций в этой связи.

THE SUMMARY.

This textbook, secondary, and vocational education system of teaching the fundamentals of scholarship recipients of the Olympic education, their sense of the Olympic movement iminsony modern society based on the values of human life and health, such as deep embedding an example of harmonious development objectives.

According to this manual, the "Olympic" on the basis of the ideas of students both spiritually and physically mature fostering the educational and training process is studied and developed a number of recommendations in this regard.

ISBN 978-9943-9170-6-4

©Abdullayev A.A., 2023

©«Yangi chitchiq prints», 2023

Kirish

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uning sifat va samaradorligini oshirishda jismoniy tarbiya va sport sohasi ustuvor ahamiyat kasb etib kelmoqda. Qolaversa, sportning jismoniy va ma'naviy yetuklik omili ekanligi, uning umumshaxsiy xususiyatlari yurtimiz yoshlari uchun jahon bilan bo'yashishda cheksiz imkoniyatlar yaratadi. mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida ishlab chiqilgan va amalga tadbir etilgan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlarni strategiyasining to'rtinchi ustuvor yo'nalishi - jismoniy sohani rivojlantirish yo'nalishida ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohaslarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu esa, o'z navbatida, yurtimiz yoshlarida jismoniy tarbiya va sport madaniyatini yuksaltirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.¹

Hozirda yurtimizda olib borilayotgan jismoniy tarbiya va sport ishlari yoshlarimizni, chinakam ma'noda, umuminsoniy fazilatlar egasi sifatida kamol topirishga xizmat qilmoqda. Chunki sporto'yinlari yoshlarda, avvalo, o'zaro jamoaviylik, ahililik, bag'rikenglik xislatlarini tarbiyalaydi. Olimpiada harakatini ham ana shunday o'yinlar qatoriga kiritish mumkin. Negaki, Olimpiya ta'limi, o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, umuminsoniylik, demokratiya, odob-axloq qadriyatlariga tayangan holda falsafiy, ijtimoiy, pedagogik, tashkiliy g'oyalarni o'zida mujassam etadi. Buni bir so'z bilan "Olimpizm" g'oyasi sifatida e'tirof etish mumkin. Uning asosini esa Olimpiya o'yinlari tarixi haqidagi bilimlar tizimini shakllantiruvchi va takomillashtiruvchi, sportning ijtimoiy - madaniy imkoniyatlari va uning sog'lom turmush tarzidagi ahamiyatini ifodalovchi Olimpiada harakati tashkil etadi.

Olimpiya ta'limi o'quv-tarbiyaviy jarayon bilan uzviy bog'langan holda:

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi bilimlar darajasini oshirish,
- o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishda olimpiya madaniyatining ahamiyatini tushuntirish;
- sog'lom turmush tarzining ahamiyati haqidagi tasavvurlarni shakllantirish;
- umumiy madaniyat va bilimdonlikni rivojlantirish;

shaxsni har tomonlama rivojlantirish kabi dolzarb masalalarni samarali hal etishga ko'maklashadi.

O'quv faoliyatining maqsadi esa o'quvchilarning ongiga olimpiada harakatining umuminsoniy qadriyatlariga asoslangan zamonaviy jamiyat, inson hayoti va adolatligi, shaxs barkamol rivojlanishining namunasi ekanligini chuqur singdirilishni nazarda tutadi va

-o'quvchilarni olimpizmning umuminsoniy va gumanistik qadriyatlari ruhida tarbiyalashi;

- O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportning milliy an'analari, olimpiya harakati haqida bilimlarni shakllantirish;

- olimpiya tarixini, xalqaro olimpiya harakatini o'rganishga bo'lgan qiziqish va bilish qobiliyatlarini rivojlantirish;

-sport mashg'ulotlari bilan tizimli shug'ullanishga motivasiya, ehtiyojini shakllantirish va takomillashtirish;

- shaxsni o'z-o'zini tarbiyalash va kamolga yetkazishni faollashtirish, o'zining oqloqiy va jismoniy sog'lig'iga mas'uliyatli munosabatni tarbiyalash;

- aholi o'rtasida olimpiya sportini, olimpizm g'oyalarni keng targ'ibot qilish usullari va vositalarini o'rganish kabi vazifalarni bajaradi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlarni strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. Manba: "uz.uz" web-sayti.

I BOB. QADIMGI OLIMPIYA O'YINLARI

1.1. Olimpiya o'yinlarining vujudga kelishi

Qadimgi olimpiya o'yinlari o'zidagi ezigulik g'oyasining ustuvorligi, dunyo xalqlarini oliy maqsad atrofida jipslashtirishi, ellar va elatlarni o'zaro do'stlik, tinchlik va hamkorlik, bag'rikenglik hamda sport madaniyatini yuksaltirishga chorlashdek yuksak umuminsoniy tamoyillari bilan o'lmas va abadiy mazmun kasbagan edi.

Tadqiqotlarda keltirilganidek, olimpiada o'yinlari eramizdan oldingi 776 yildan boshlab tashkil etib kelinadi va bugungacha 293 ta olimp o'yinlari o'tkazilgan. Qadim Yunonistonning kichik Olimp shahrida odamlarning kuchlik va chaqqonligini aniqlab beruvchi jismoniy bahslarning o'tkazilishiga oid ko'plab afsonalar mavjud.

Yunonistonlik tarixchi Timey Olimp o'yinlari tarixini yozgan bo'lib, an'analariga ko'ra, Olimp bayrami yozgi quyosh tiklanishidan keyin boshlanadigan birinchi oylo'ldi "muqaddas oy"da o'tkazilgan. Bu o'yinlar yunon Olimp yili hisoblangan har 1417 kundan keyin takrorlangan. Ana shu oy davomida butun Yunoniston hududida "Muqaddas tinchlik oyi" e'ton qilinib, urushlar to'xtatilgan, hatto kecha raqib bo'lganlar "eng kuchli", "chaqqon", "tezkor" deb atalish huquqini olish uchun o'zaro kuch sinashganlar. O'z navbatida, bu o'yinlar yunon davlatlarining harbiy qudrati ko'rigi ham edi. Bu o'yinlar yunonlarning oliy xudosi Zevs sharafiga o'tkazilgan bo'lib, ularda qatnashish pahlavonlarning asosiy maqsadi bo'lgan. Ko'p yuz yilliklar davomida olimpiya o'yinlari Yunonistonda har to'rt yilda o'tkazib turilgan. Dastlab o'yinlar yugurish va sakrash musobaqalaridan iborat bo'lgan. Keyinchalik kurash, mush jangi, disk uloqtirish, qilichbozlik, ikki g'ildirakli ot arava poygasi kabi musobaqalar qo'shilgan.

Zamonaviy olimpiya o'yinlarining olimpiya mash'ali Qadimgi Yunoniston yerlarida quyosh nurlaridan yondiriladi. Olimpiya olovi yozilgani olimpiya o'yinlari boshlanganini anglatadi. Olov musobaqalarining oxirgi kunigacha yonib turadi, o'yinning tantanali yopilishigacha uni o'chirmay turadilar.

Qadimda Olimpiya o'yinlari vaqtida urushlar to'xtatilar edi. Yunoniston yerlarining barcha burchaklaridan odamlar quruqlik va suvda olimpiya o'yinlariga oshiqqanlar. Zamonaviy olimpiada o'yinlari dunyoning turli katta shaharlarida o'tkaziladi. Ularda nafaqat erkaklar, balki ayollar ham qatnashadilar. Hozirgi musobaqalar sportning tamoman yangi turlarini o'z ichiga olgan. Futbol, basketbol, baydarkada suzish va boshqalar shular jumlasidandir. G'olib sharafiga uning vatani madhiyasi yangraganda va davlat bayrog'i ko'tarilganda millionlab odamlar, ayniqsa, sportchining hamyurtlari u bilan g'alabadan g'ururlanish hissin baham ko'radilar. Olimpiya o'yinlarida millati, tili va irqidan qat'iy nazar, butun

dunyo sportchilari qatnashadilar. Olimpiya bayrog'ini yashil, qizil, sarig, qora, ko'k rangli beshta barchalar bezaydi. Ular yer sharidagi besh qitaning ramzi hisoblanadi.

Olimpiada mukofotlari g'oliblar mehirligining eng yuqori bahosi, ularga jammi, beztalvon ramzi bo'lib kelmoqda. Qadimda g'olib sportchilar sharafiga jamoa va marmardan yodgorliklar qurilgan. Hozirgi davrda olimpiada oltin medali sohiblari o'z davlatidan faxriy mukofotlar oladilar. Eduard Gavayler shunday deydi: "Qadimgi yunon o'yinlari miloddan avvalgi 776 yildan eramizning 394 yilgacha Olimpiyada 300 marta yaqin o'tkazilgan. Dastlabki zamonaviy Olimpiya o'yinlari 1896 yilda Afinada marmardan ishlangan Panafiney stadionida (shuningdek, Panathnikos, Panathinaiko Stadio) o'tkazilgan. Qadimgi davrlardagi eramizdan XIX asrga kelib, deyarli hech narsa saqlanib qolmadi, ammo bu ulkan rahbariyatni mohiyatlashgan inson topilgan...". Demak, XIX asr oxirlariga kelib, Olimpiya o'yinlarini o'tkazish maqsadida sport va jamiyat arbobi baron Pyer de Kuberten Xalqaro Olimpiya qo'mitasining birinchi kongressini to'pladi. Kongressda yozgi o'yinlarni 1896 yilda Gresiyada o'tkazishga qaror qilindi. O'sha paytda hali Olimpiya olovi, (Olimpiya olovi 1936 yil Berlin o'yinlarida joriy qilingan). Olimpiya qasamyodi mavjud bo'lmagan, ammo stadion bor edi.

Konflik adabiyotlarda ham olimpiya o'yinlari tarixiga oid ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Tarjimon Peter Biningning qayd etishicha, ibtidoiy davrda atrofi tog'lar bilan o'ralgan Lyakon tog'larida Zevs sharafiga bag'ishlab insonlarni qatnash qilibdtek datshtali udum haqidagi afsonalar ham bo'lgan.

1.2. Timey sanasi. Ekexeryiya va klokagatiya tamoyillari

Olimpiya o'yinlari o'zida adolatparvarlik, xalqparvarlik hamda haqoniylik tamoyillarini aks ettirishi bilan yanada qimmatlidir. Olimpiya shahrida maxsus bog'cha har to'rt yilda bir marta olimpiya o'yinlari ochiladigan sanani belgilab turadi. Bu, an'anaga binoran, yozda quyosh eng yuksak cho'qqisiga ko'tarilib, osmonda to'lin oy poydo bo'ladigan birinchi kun bo'lardi.

"Olimpiada" atamasi ikki olimpiada o'yinlari oralig'idagi to'rt yil ma'nosini anglatadi. Yunonlar uchun bu taqvimni yuqorida nomi qayd etilgan tarixchi Timey miloddan avvalgi 264 yilda kiritgan. O'shandan beri yunon yilnomalari shu taqvim asosida bitta boshlangan. Masalan: "Foreyaliklar Delfini kirenalik Prior yugurilgacha g'olib chiqqan 105-Olimpiadaning to'rtinchi yili bosib olishdi", "Ekexiya urushi filvalik Poliki yugurilgacha g'olib chiqqan 108-Olimpiadaning birinchi yili tugadi" kabi...

Eng ilonitilishi shuki, tarixchilar e'tirofiga ko'ra, antik davrga doir u yoki bu tarixiy voqealar sanasini aniqlashda Olimpiada taqvimlaridan boshqa aniq manbani topish qiyin. Zero, yunonlar hayotidagi eng muhim voqea bo'lgan Olimpiada